

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 316 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARI	78
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'aniybekovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamatovna	
YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarsul o'g'li	



MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI	217
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI	222
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	225
Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	229
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR	233
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	238
Abdullaev Erkinjon Azamovich	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA KORKONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	245
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	251
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	257
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	261
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
TO'QIMACHILIK KORKONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RESURLARNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Avulchayeva Feruza Jurakuziyevna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	276
Tulyaganova Aziza	
ISLOMIY MOLIALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELEKTNING DOLZARBLIGI.....	281
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
TURIZM MARKETINGINING NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	286
Xamidov Otabek Bakidjanovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHLATLARI	290
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
ЭКОЛОГАМ ПОЧЕТ И УВАЖЕНИЕ	298
Максудова Шахиста	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENTSIYALARI	304
Jo'raev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIALASHTIRISH XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	307
Inomjonov Islomjon Iloxomjon o'g'li	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	311
Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna	



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI

Arzikulov Otabek Ali o'g'li

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti
mustaqil izlanuvchisi dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini statistik baholashning nazariy-metodologik jihatlari ko'rib chiqiladi. Xususan, Kobb–Duglas ishlab chiqarish funksiyasini modernizatsiya, diversifikatsiya, investitsiyalash va innovatsion boshqaruv omillari bilan boyitish zarurati asoslanadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, Kobb–Duglas funksiyasi, statistik baholash, investitsiya, diversifikatsiya, samaradorlik, metodologiya.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological aspects of the statistical assessment system for the economic indicators of small business and private entrepreneurship. In particular, the necessity of enriching the Cobb–Douglas production function with factors of modernization, diversification, investment, and innovative management is substantiated.

Key words: small business, private entrepreneurship, Cobb–Douglas function, statistical assessment, investment, diversification, efficiency, methodology.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретико-методологические аспекты системы статистической оценки экономических показателей сферы малого бизнеса и частного предпринимательства. В частности, обосновывается необходимость обогащения производственной функции Кобба–Дугласа факторами модернизации, диверсификации, инвестирования и инновационного управления.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, функция Кобба–Дугласа, статистическая оценка, инвестиции, диверсификация, эффективность, методология.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining barqaror drayveriga aylandi. Mazkur soha nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, daromadlarni oshirish va aholi bandligini ta'minlashda, balki hududlar iqtisodiy salohiyatini faollashtirishda ham muhim o'rin tutadi. Shu bois kichik biznes subyektlari faoliyatining samaradorligini aniqlovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini chuqur o'rganish va ularni statistik jihatdan baholash dolzarb masalaga aylangan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining statistik tahlili iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarini, investitsion faollikni, innovatsion jarayonlarni hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlashda muhim analitik vosita hisoblanadi. Ushbu tizim yordamida ishlab chiqarish hajmi, bandlik, yalpi ichki mahsulotdagi ulush, soliq tushumlari, eksport hajmi kabi ko'rsatkichlarning dinamikasi baholanadi, soha rivojiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi va ularning o'zaro bog'liqlik darajasi statistik usullar asosida tahlil qilinadi.

Hozirgi sharoitda kichik biznes ko'rsatkichlarini baholashda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda kompleks statistik metodlar — indeks tahlili, korrelyatsion-regression modellar, kompozit indekslar va integral baholash tizimlaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Chunki iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi, raqamli iqtisodiyotning kengayishi va hududlararo tafovutlarning chuqurlashuvi bu sohani yanada nozik tahlil qilishni taqozo etadi.

Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish, ularni statistik baholash uslubiy asoslarini takomillashtirish hamda O'zbekiston amaliyoti misolida ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari orqali kichik



biznes subyektlari faoliyatining kompleks baholanishi, mintaqalar kesimida tahlil qilish imkoniyatlari kengayadi hamda bu jarayon davlat siyosatini samarali shakllantirish uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash masalasi bo'yicha xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan. Bu soha, avvalo, iqtisodiy o'sish, bandlik, innovatsiyalar va hududiy rivojlanish jarayonlarida kichik biznesning o'rnini aniqlashga qaratilgan yondashuvlar orqali shakllangan.

T. Beck va A. Demircuc-Kunt kichik biznes subyektlarining moliyalashtirishga kirish imkoniyati ularning o'sish salohiyatini bevosita belgilovchi asosiy omil ekanini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, moliyaviy bozorlarning rivojlanmaganligi va kredit infratuzilmasining cheklanganligi sababli ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda KOB sektorining rivojlanish sur'atlari past bo'lib qolmoqda. Aynan shu omil kichik biznes faoliyatini baholashda "moliyaviy kirish indeksi" kabi statistik ko'rsatkichlarning kiritilishini talab qiladi.

P. Davidsson, L. Achtenhagen va L. Naldi o'z tadqiqotlarida kichik firmalarning o'sish dinamikasini aniqlashda ko'p o'lchovli yondashuvni taklif etadi. Ular o'sish mezonlarini faqat daromad yoki bandlik ko'rsatkichlari bilan cheklash noto'g'ri natijalarga olib kelishini, buning o'rniga foyda, ishlab chiqarish hajmi, eksport ulushi va raqamli savdo indikatorlarini birlashtirish zarurligini qayd etadi.

Kompozit indekslar yaratish bo'yicha M. Nardo, M. Saisana va A. Saltelli tomonidan ishlab chiqilgan "Handbook on Constructing Composite Indicators" (OECD, 2005) asari ushbu yo'nalishdagi eng muhim metodik manba hisoblanadi. Mualliflar indikatorlarni tanlash, normallashtirish, vaznlash va birlashtirish bosqichlarini qat'iy statistik asosda tashkil etishni taklif etadi. Ayniqsa, ular kompozit indekslarda sezgirlik tahlili va validatsiya jarayonining ahamiyatiga urg'u beradi.

I.T. Jolliffe o'zining "Principal Component Analysis" nomli fundamental asarida (Springer) indikatorlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishda asosiy komponentlar tahlili (PCA) usulining afzalliklarini ko'rsatadi. U PCA yordamida iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidagi korrelyatsiyalarni aniqlash va eng muhim omillarni ajratib olish mumkinligini isbotlaydi. Bu yondashuv kichik biznes rivojlanishini kompleks baholashda eng samarali statistik vositalardan biri sifatida tan olingan.

Shuningdek, Jahon banki va IFC tomonidan O'zbekistonda o'tkazilgan "Business Environment in Uzbekistan as seen by SMEs" hisobotida kichik biznes uchun asosiy to'siqlar sifatida soliq yuki, kredit stavkalari va infratuzilma sifati ko'rsatib o'tiladi. Bu hisobotda tavsiya etilgan indikatorlar — xususan, "tadbirkorlik muhiti indeksi" va "mintaqaviy raqobatbardoshlik indeksi" — milliy statistik baholash tizimlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan "Composite Indicators of Country Performance" metodologiyasida esa ko'rsatkichlarni integratsiyalashtirishda turli normalizatsiya usullari (z-score, min-max, distance-to-reference)ni solishtirish zarurligi ta'kidlanadi. Bu yondashuv kichik biznes ko'rsatkichlarini tahlil qilishda regional tafovutlarni aniqlashga aks ettirish imkonini beradi.

Natijada, mavjud ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik baholashda multidimensial yondashuv, indikatorlarni kompleks indeksga birlashtirish va komponent tahliliga asoslangan matematik modellardan foydalanish eng samarali natijani beradi. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida Jahon banki, OECD va IFC tavsiyalarini mahalliy statistik tizimga moslashtirish kichik biznes siyosatini ishlab chiqishda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank va Jahon banki ma'lumotlar bazalaridan olindi. Tahlil jarayonida mantiqiy, taqqoslama, korrelyatsion-regression va indeks tahlil usullari qo'llanib, ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik va ularning dinamikasi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Ushbu soha iqtisodiyotning muhim lokomotivi sifatida ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Agar tarixan Kobb–Duglas ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarish jarayonida hozirgi zamon ishlab chiqarish omillari — sohani investitsiyalashtirish, modernizatsiyalashtirish, diversifikatsiyalashtirish, shuningdek, innovatsion g'oyalar va innovatsion taraqqiyotni boshqarish omillarini inobatga olmagan bo'lsa, bu bugungi kunda ularni kiritish zaruriyatini yuzaga keltiradi.



Albatta, agar ushbu omillar ma'lum darajada "tekislanib", ularning shaffofligi aniqlansa, u holda bu omillarni ishlab chiqarish funksiyasi samaradorligini oshirish uchun, bizningcha, ishlab chiqarish funksiyasiga kiritish mumkin.

Shunga qaramay, Kobb–Duglas ishlab chiqarish funksiyasiga bo'lgan qiziqish kamaygani yo'q, aksincha, ortib bormoqda. Chunki ushbu funksiyaning matematik shaffofligi va aniqligi mavjud bo'lib, u ishlab chiqarish omillarining qaytimi tebranishini aniq ifodalay oladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ishlab chiqarish hajmini modellashtirishda ishlab chiqarish funksiyasidan foydalaniladi, ya'ni:

$$U(K, L) = ALbK^v,$$

bu yerda: L – mehnat sarflari (yillik jami kishi soatda);

K – kapital xarajatlar jami asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati yoki sohaga kiritilgan investitsiyalar hajmi;

A – mehnat sarfi va kapital xarajatlardan tashqari boshqa umumiy omillar ta'siri;

b va v – o'zgarish miqdorlar bo'lib, mehnat (L) va kapital (K) ning ishlab chiqarish elastiklik koeffitsiyentlari hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ishlab chiqarish hajmining ortishida omillarning tebranishi doimiy yoki oddiy hol deb yuritiladi. Agar mahsulot hajmining o'zgarishi ishlab chiqarish omillariga nisbatan kamroq bo'lsa, unda omillarning tebranishi ham pastroq, qaytimi esa yuqoriroq bo'lishi mumkin. Funksiyaning darajalari:


$$\alpha + \beta < 1,$$

bo'lsa qaytimi, ya'ni samara pasayuvchi

$$\alpha + \beta > 1,$$

bo'lsa, samara orttiruvchi deb yuritiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini statistik tadqiq etish — bu jarayon sohaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishini talab etadi. Shu sababli, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini statistik tadqiq etishda mantiqiy ketma-ketlikni aniqlash hamda uning uslubiy asoslarini ishlab chiqish zarur (1-rasm).



1-rasm: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini statistik tadqiq etish bosqichlari

Hozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik statistikasi mahsulot hajmi, tarkibi va dinamikasini, shuningdek, ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonini hamda uning hududiy taqsimotiga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy holatini hisobga olgan holda o'rganiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini statistik o'rganishning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar taklif etiladi: yaxlitlik, tizimli yondashuv, aniqlik, ishonchlilik, miqdoriy baholash, ilmiylik, muvofiqlik, maqsadlilik va qiyosiylik.



Olib borilgan tadqiqotlar va erishilgan natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, statistik usullarning sohada qo'llanilishi orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- iqtisodiy obyekt va jarayonlarning iqtisodiy-statistik tahlili, omillar o'zgarishi va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash, resurslardan samarali foydalanish darajasini baholash hamda ularning alohida obyektlar bo'yicha samaradorligini ta'minlash;
- shartnomadagi og'ishlarni bartaraf etish va taraqqiyot natijalaridan kelib chiqib, kelgusi faoliyatni prognozlash;
- shartnomaviy reja va prognoz ko'rsatkichlarining texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarini amalga oshirish, shuningdek, ekzogen o'zgarishlarning iqtisodiy obyektlar va ularning modellaridagi ta'sirini ifodalash.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi iqtisodiy jarayonlarni statistik tadqiq etishning uchta asosiy usuliga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Nazariy statistikaning klassik usullari: statistik guruhlash, tanlanma usul, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar, vaqt qatorlarining statistik tahlili va boshqalar.
2. Zamonaviy statistika usullari: ko'p omilli statistik tahlil, korxonalarni atributiv belgilariga ko'ra guruhlash, variatsiya, dispersion va kovariatsion tahlil.
3. Stoxastik usullar: tadqiqot operatsiyalarining stoxastik modellari, stoxastik dasturlash va zahiralarni boshqarishning stoxastik yondashuvlari.

Kuzatishning statistik hisobot usuli — bu statistika idoralari tomonidan tasdiqlangan ko'rsatkichlar asosida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan belgilangan muddatlarda qonuniy tartibda tuzilib, statistika tashkilotlariga yuboriladigan hisobot shakllaridir.

Maxsus uyushtirilgan kuzatish esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida muayyan maqsadni ko'zlab, muntazam hisobotlarda keltirilmaydigan ma'lumotlarni to'plash maqsadida o'tkaziladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik statistikasida statistik kuzatish quyidagi uch belgi asosida turlarga ajratiladi:

1. statistik to'plam elementlarini qamrab olish darajasiga ko'ra;
2. o'tkazilish vaqtiga ko'ra;
3. ma'lumotlar manbaiga ko'ra.

Statistik ma'lumotlarni to'plash usullari tashkiliy tamoyillarga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- a) anketa usuli;
- b) ekspeditsiya usuli;
- c) o'z-o'zini qayd etish usuli.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida statistik guruhlash — bu tadqiqot obyektida sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarni xarakterli belgilar bo'yicha bir xil guruh yoki kichik guruhchalarga ajratib o'rganish jarayonidir. Masalan, agrar sektorda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini yer maydonlariga ko'ra — yirik, o'rta va mayda xo'jaliklarga, yetishtirilayotgan mahsulot turlariga ko'ra esa — meva, sabzavot, poliz, uzum va boshqa yo'nalishlarga ajratish mumkin.

Statistik guruhlash usuli yordamida quyidagi vazifalar hal etiladi: hodisalarning ijtimoiy-iqtisodiy tiplari va tarkibiy tuzilishini aniqlash, unda ro'y berayotgan siljishlarni o'rganish hamda hodisalar o'rtasidagi aloqalar va bog'liqliklarni statistik tahlil qilish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni to'liq kuzatish ancha murakkab bo'lib, ko'p vaqt va qo'shimcha resurs talab etadi. Shu sababli, sohani statistik tadqiq etishda tanlanma kuzatish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tanlanma kuzatish yordamida statistikada o'rganilishi lozim bo'lgan to'plamdan zarur miqdordagi belgilar maxsus usullar asosida tanlab olinadi va ularning natijalari bosh to'plamga tarqatish orqali qoniqarli axborot olish imkonini beradi. Har qanday tanlanma kuzatishning maqsadi — olingan natijalar asosida bosh to'plamni xolisona xarakterlashdir.

Tanlanma kuzatish ma'lumotlari bosh to'plamga quyidagi ikki usul orqali tatbiq etiladi¹:

1. **Qayta hisoblash usuli.** Faraz qilaylik, tanlanma kuzatish o'tkazilib, biror belgining o'rtacha miqdori ($\bar{x}$) va salmog'i (R) uchun ishonch oraliqlari aniqlangan:

$$\bar{x} - \Delta_x \leq \tilde{x} \leq \bar{x} + \Delta_x \quad (1)$$

va

$$\varpi - \Delta_p \leq P \leq \varpi + \Delta_p \quad (2)$$



Tengsizliklar bosh to'plam miqdori (N) ko'paytirilsa, belgi qiymatlarining (x) yig'indisi ($\bar{x}N$) va o'rganilayotgan belgiga esa bo'lgan birliklarning miqdori (PN) uchun ishonch oraliqlari:

$$\bar{x}N - \Delta_{\bar{x}}N \leq \tilde{x}N \leq \bar{x}N + \Delta_{\bar{x}}N \quad (3)$$

va

$$\varpi N - \Delta_p N \leq PN \leq \varpi N + \Delta_p N \quad (4)$$

Bu miqdorlarning xatolari $P(t)$ ehtimol bilan mos ravishda ΔxN va ΔpN dan oshmaydi.

2. **Koeffitsiyentlar usuli.** Ba'zi hollarda yoppasiga kuzatish ma'lumotlari tanlanma kuzatish usuli bilan tekshirib ko'riladi va unga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Kichik biznes sohasi statistikasida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning vaqt bo'yicha o'zgarishini dinamika ko'rsatkichi orqali tavsiflab ko'rsatish mumkin. Dinamika qatorlarini tahlil qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri ayrim vaqtlar oralig'ida kichik biznes sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o'zgarishining o'ziga xos tomonlarini o'rganishdan iborat. Bunda mutloq qo'shimcha o'sish, o'sish sur'atlari, har bir foiz qo'shimcha o'sishning mutloq qiymati kabi dinamika qatorlarining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlariga asoslaniladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mutloq qo'shimcha o'sish ko'rsatkichi har bir davr ko'rsatkichining o'zidan oldingi davr yoki bazis davri ko'rsatkichiga nisbatan qancha birlikka ortgani yoki kamayganini tavsiflab, har bir davr ko'rsatkichi bilan o'zidan oldingi davr yoki bazis davri ko'rsatkichi o'rtasidagi farq ko'rinishida aniqlanadi. Ya'ni:

Zanjirsimon usulda: $A_{o'zg.} = u_i - u_{i-1} \quad (5)$

Bazisli usulda: $A_{o'zg.} = u_i - u_0 \quad (6)$

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidakinamika qatorlari ko'rsatkichlarining o'zgarish intensivligi har bir davr ko'rsatkichining o'zidan oldingi davr ko'rsatkichiga yoki bazis davri ko'rsatkichiga nisbati bilan ifodalanuvchi o'sish (kamayish) sur'atlari ko'rsatkichi bilan aniqlanib, ko'rsatkich foizlarda ifodalanadi. Ya'ni:

zanjirsimon usulda $K_{\check{y}.c.} = \frac{y_i}{y_{i-1}} \cdot 100 \quad (7)$

bazisli usulda $K_{\check{y}.c.} = \frac{y_i}{y_0} \cdot 100 \quad (8)$

Dinamika qatorlari ko'rsatkichlarining mutloq qo'shimcha o'sishi miqdori o'zgarishlarini nisbiy miqdorlarda qo'shimcha o'sish sur'ati ko'rsatkichi orqali ifodalash mumkin. Bu ko'rsatkich mutloq qo'shimcha o'sishni o'zidan oldingi davr ko'rsatkichi yoki bazis davri ko'rsatkichiga nisbati ko'rinishida aniqlanadi.

$$K_{\check{y}.c.} = \frac{A_{\check{y}3r.}}{y_{i-1}} \cdot 100 \text{ yoki } K_{\check{y}.c.} = \frac{A_{\check{y}3r.}}{y_0} \cdot 100 \quad (9)$$

Har bir foiz qo'shimcha o'sishning mutloq qiymati ko'rsatkichi mutloq qo'shimcha o'sishni qo'shimcha o'sish sur'atlariga nisbati ko'rinishida aniqlanib, faqatgina zanjirsimon usuldagina iqtisodiy mazmunga ega.

$$|\%| = \frac{A_{\check{y}3r.}}{K_{\check{y}.c.}} \text{ yoki } |\%| = 0,01 * \acute{o}_{i-1} \quad (10)$$

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik statistikasida iqtisodiy indekslardan foydalanish orqali murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar omillari, ularning o'zgarish darajasi va o'zaro bog'liqligini baholash imkoniyati yaratiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini statistik tadqiq etishning barcha bosqichlarida yuqorida keltirilgan usullardan keng foydalaniladi. Bu, o'z navbatida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini statistik



usullar orqali o'rganish, olingan statistik axborotlarning aniqligi, ishonchligi, taqqoslanuvchanligi va dolzarbligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, sohani statistik jihatdan baholash, uning istiqbolini aniqlash, rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi.

Raqobat sharoitida ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish zaruriyatini alohida ta'kidlashga hojat yo'q. Birinchidan, bozor muhitida "vakuum", harakatsizlik, xo'jasizlik va yo'qotishlarga o'rin yo'q; ikkinchidan, o'z imkoniyatlari va resurslaridan yetarlicha foydalanmaydigan korxona istiqbolga ega bo'lmaydi hamda bankrotlik xavfiga duch keladi. Shu sababli barcha turdagi resurslardan oqilona foydalanish, ayniqsa ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlarida tejamkorlikka rioya etish har bir korxonaning muvaffaqiyat qozonishida asosiy omil hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining agregat ko'rsatkichlarini indekslar orqali statistik hisoblash formulalari

KO'RSATKICHLAR	FORMULASI	BELGILANISHI
Kichik biznes sohasining rivojlanish ko'rsatkichi indeksi	$I_{\text{piv}} = \sum_{i=1}^i k_i \frac{q_i^0 - q_i^{\min}}{q_i^{\max} - q_i^{\min}}$	$q_i^{\max}$ va $q_i^{\min}$ – tegishli soha ulushi ko'rsatkichining eng katta va eng past miqdori; - q_i^0 kichik biznes sohasining tadqiq qilinayotgan hududlardagi yalpi hududiy mahsulotidagi ulushi, %; - k_i ko'rsatkichlarning umumiy summadagi birlik beruvchi tortilgan koeffitsiyentlari
Mahsulot yaratish uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalarning umumlashgan indeksi (I_I)	$I_I = \frac{1}{2} i_{\text{янг.кир.маш.}} + \frac{1}{2} i_{\text{мав.қув.фой.}}$	$1/2 i_{\text{янг.кир.маш.}}$ - qiymatning sohaga yangi kiritilgan mashina va jihozlar qiymatidagi ulushi indeksi; $1/2 i_{\text{мав.қув.фой.}}$ - ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish sohasida mavjud quvvatlardan foydalanish indeksi
Ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishning umumiy indeksi (I_{II})	$I_{II} = \frac{1}{3} i_{\text{мкк}} + \frac{1}{3} i_{\text{эк}} + \frac{1}{3} i_{\text{мў}}$	$1/3 i_{\text{мкк}}$ - mashina va jihozlar qiymatining sohadagi xo'jaliklar asosiy vositalari umumiy hajmidagi nisbati indeksi; $1/3 i_{\text{эк}}$ - Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidaenergetika quvvatlaridan foydalanish indeksi; $1/3 i_{\text{мў}}$ - Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidaaylanma mablag'lardan foydalanish indeksi
Kichik korxonaning integral indeksi (I_{III})	$I_{III} = \frac{1}{2} i_{\text{ккк}} + \frac{1}{2} i_{\text{ххх}}$	$1/2 i_{\text{ккк}}$ - sohada mavjud quvvatlardan foydalanish indeksi; $1/2 i_{\text{ххх}}$ - sohada ajratilgan xarajatlar indeksi
Ijtimoiy infratuzilmaning yig'ma indeksi (I_{IV})	$I'_{IV} = \frac{1}{2} i_{\text{иx}} + \frac{1}{4} i_{\text{ужо}} + \frac{1}{4} i_{\text{хк}}$	$1/2 i_{\text{иx}}$ - sohada ish haqining hududlar bo'yicha o'rtachaga nisbati indeksi; $1/2 i_{\text{ужо}}$ - sohada faoliyat ko'rsatuvchilar uy-joylarining obodonlashtirish indeksi; $1/4 i_{\text{тmm}}$ - sohada xizmat ko'rsatishning rivojlanishi indeksi
Ishlab chiqarish infratuzilmasining umumiy indeksi (I''_{IV})	$I''_{IV} = \frac{1}{3} i_{\text{мкк}} + \frac{1}{3} i_{\text{ют}} + \frac{1}{3} i_{\text{хиз}}$	$1/3 i_{\text{мкк}}$ - xodimlarga to'g'ri keladigan mashina-jihozlar soni indeksi; $1/3 i_{\text{ют}}$ - umumiy yuk tashish hajmida soha yuklarini tashish ulushi indeksi; $1/3 i_{\text{хиз}}$ - sohaga ko'rsatilayogan xizmatlar qiymati indeksi
Kichik biznes sohasi o'zaro bog'liq faoliyatlarining yig'ma indeksi		$I_{\text{y6ф}} = \sqrt[5]{I_I \cdot I_{II} \cdot I_{III} \cdot I'_{IV} \cdot I''_{IV}}$



Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlarni yanada kengroq ilmiy o'rganish hamda tahlil etish maqsadida bir qator statistik ko'rsatkichlarni baholaymiz. Ular quyidagilar:

1. Kichik tadbirkorlik sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi koeffitsiyenti (Kkt).

$$K_{KT} = \frac{V_{SB}}{V_M} \quad (11)$$

bu yerda: VSB – kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi; VM – hududlarda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmi.

2. Davlat budjetiga tushirilgan soliq yig'imlarida kichik biznes subyektlari ulushi koeffitsiyenti (Ks)

$$K_C = \frac{V_{NSB}}{V_{NM}} \quad (12)$$

bu yerda: VNSB – kichik tadbirkorlik subyektlaridan budjetga to'langan soliqlar umumiy hajmi; VNM – respublika va mahalliy soliqlarning umumiy hajmi.

3. Mehnatga qobiliyatli aholining umumiy sonida kichik biznes sohasida ishlovchi subyektlar ulushi koeffitsiyenti (KMQ)

$$K_{MK} = \frac{R_{SB}}{T_N} \quad (13)$$

bu yerda: RSB – kichik biznes sohasida band bo'lganlar soni;

TN – mehnatga layoqatli aholining umumiy soni.

4. Mehnat subyektlariga nisbatan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ishlovchilarning o'rtacha mehnat haqlarining ulushi koeffitsiyenti (KMH)

$$K_{MX} = \frac{Z_{SB}}{Z_{MO}} \quad (14)$$

bu yerda: ZSB – kichik biznes sohasi xodimlarining o'rtacha mehnat haqi;

ZMO – jami o'rtacha mehnat haqlari.

5. Mehnatga layoqatli aholi soniga nisbatan kichik korxonalar soni (Kkk)

$$K_{KK} = \frac{T_N}{N_{SB}} \quad (15)$$

bu yerda: NSB – kichik korxonalar soni.

6. Tarmoq belgilari bo'yicha kichik tadbirkorlik taqsimlanishining jamlanma koeffitsenti (Kjamlanma) yalpi hududiy mahsulotning hajmiga ta'sir qiluvchi sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi va transport tarmoqlarining eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi.

Berilgan koeffitsiyentni hisoblash uchun iqtisodiyot tarmoqlari hisobga olinib, quyidagi formula tavsiya etildi:

$$K_{\text{жамланма}} = \sum_{i=1}^n K_i \quad (16)$$

bu yerda: Ki – iqtisodiyot tarmoqlari

7. Mintaqa iqtisodiyotidagi umumiy investitsiyalar hajmiga nisbatan kichik biznes sohasidagi investitsiya ulushi koeffitsiyenti (Ki):

$$K_i = \frac{V_{IMP}}{V_{OI}} \quad (17)$$

bu yerda: VOI – iqtisodiyotdagi umumiy investitsiyalar hajmi;

VIMP – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi investitsiyalar hajmi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hududlarda kichik biznes va xususiy sohasi rivojining iqtisodiy samaradorligini baholashning umumlashgan formulasi quyidagicha bo'lishi tavsiya etildi. Ya'ni:



$$K_c = \frac{V_{SB}}{V_M} + \frac{V_{NSB}}{V_{NM}} + \frac{R_{SB}}{T_N} + \frac{Z_{SB}}{Z_{MO}} + \frac{\sum_{i=1}^n N_i}{N_t} + \frac{V_{HMI}}{V_{OI}} \quad (18)$$

bu yerda: N_i – iqtisodiyot tarmoqlaridagi kichik korxonalar soni;

N_t – iqtisodiyot tarmoqlaridagi jami korxonalar soni.

Ushbu ma'lumotlarni bazis va shartnomaga nisbatan o'zgarishini hisoblash mumkin. Bunday holatda formula quyidagi ko'rinishda bo'lishi tavsiya etildi:

$$K_{\text{эIII}} = \frac{V_{SB} \times K_{1Y}}{V_M} + \frac{V_{NSB} \times K_{2Y}}{V_{NM}} + \frac{R_{SB} \times K_{3Y}}{T_N} + \frac{Z_{SB} \times K_{4Y}}{Z_{MO}} + \frac{\sum_{i=1}^n N_i \times K_{5Y}}{N_t} + \frac{V_{HMI} \times K_{6Y}}{V_{OI}} \quad (19)$$

Ko'p hollarda taklif etilayotgan uslubiyotdan respublika va mintaqalar bo'yicha moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar hamda koeffitsiyentlarni hisoblash asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi rivojlanishi bo'yicha samarali natijalarga ega bo'lish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining iqtisodiy samaradorligini baholashda investitsiya, modernizatsiya va innovatsion boshqaruv kabi omillarning muhim ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqladi. Taklif etilgan yangi matematik formulalar mintaqalar va respublika miqyosida kichik biznes subyektlari faoliyatining samaradorligini yanada aniq, shaffof va kompleks tarzda baholash imkonini beradi. Ushbu metodologiya davlat organlari va moliyaviy muassasalar uchun mazkur sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan samarali siyosatni ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T. Beck, A. Demircuc-Kunt. Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint. – Journal of Banking & Finance, 2006. – 30(11). – P. 2931–2943.
2. P. Davidsson, L. Achtenhagen, L. Naldi. Small Firm Growth — A Review and Synthesis. – Now Publishers Inc., 2016. – 124 p.
3. M. Nardo, M. Saisana, A. Saltelli, S. Tarantola, A. Hoffmann, E. Giovannini. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. – OECD Publishing, Paris, 2005. – 162 p.
4. I.T. Jolliffe. Principal Component Analysis. – Springer Series in Statistics, New York, 2002. – 487 p.
5. OECD. Composite Indicators of Country Performance: Conceptual and Methodological Considerations. – OECD Publishing, Paris, 2008. – 98 p.
6. World Bank / IFC. Business Environment in Uzbekistan as Seen by Small and Medium Enterprises. – Washington, D.C.: World Bank Group, 2019. – 112 p.
7. OECD. Measuring Entrepreneurship: A Collection of Indicators. – OECD Publishing, Paris, 2019. – 184 p.
8. T. Beck. Financing Constraints of SMEs in Developing Countries. – Tilburg University Press, 2007. – 77 p.
9. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum. – Washington, D.C.: World Bank Publications, 2025. – 245 p.
10. A. Altman. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy. – Journal of Finance, 1968. – 23(4). – P. 589–609.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
